O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
__________ B.Tulaganov
(OTM rektori)

2024 yil "30" 08

O'QUV ISHLARI DEKANATI TOMONIDAN RO'YXATGA OLINDI
T/R: 43/b
"30" 08 2024 y.

# " O'ZBEK TILI "
# FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:**
100000 – Ta'lim
200 000 - San'at va gumanitar fanlar
300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq
700 000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
100 0000 -Xizmatlar

**Ta'lim sohasi:**
110 000 - Ta'lim
210 000 - San'at
310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
410 000-Biznez va boshqaruv
710 000-Muhandislik isi
720 000-Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
730 000-Arxitektura va qurilish
102 0000 - Gigiena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi

**Ta'lim yo'nalishlari:**
60112400– Professional ta'lim: qurilish muhandisligi (bino va inshootlar qurilishi);
60210400 - Dizayn: sanoat dizayni
60210400 - Dizayn: interyer dizayni
60310100 - Iqtisodiyot (qurilish)
60411200-Menejment(qurilish)
60730100-Arxitektura (turlari bo'yicha)
60730300-Qurilish muhandisligi (faoliyat va turlari bo'yicha)
60730300-Qurilish muhandisligi (qurilish materiallari texnologiyasi va standartlashtirish)
60713400-Atrof- muhit muhandisligi
60723300-Geomatika muhandisligi

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi | O'quv yili 2024-2025 | | Semestr 1,2 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi tanlov | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | O'zbek tili | | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Respublikamizda ta'limni takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida mazmun jihatidan yangi o'quv dasturlari va darsliklar yaratishga qaratilmoqda. Davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek tilini o'qitishni ham bugungi davr talablariga javob beradigan darajaga o'tkazish ana shunday muhim vazifadir.

Dasturning asosiy maqsadi talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish, tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishishdir. Ushbu nuqtai nazardan dastur o'qituvchi va talaba oldiga qator vazifalarni qo'yadiki, bular mutaxassisning kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olishlari va yozishlari, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o'zgartira bilish malakalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Dasturni tuzishda ana shunga e'tibor bergan holda muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turlicha tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini o'stirish vazifasi qo'yilgan.

Dasturni tuzishda oliy ta'limda davlat tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi inobatga olindi hamda talabalarning akademik litsey va kollejlarda o'zbek tilidan egallashlari shart bo'lgan bilimlar ko'lami va darajasiga asoslaniladi.

**II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu: O'zbekiston-yagona vatan" mavzusida mustaqillik darsi. O'zbek tili – Davlat tili.**

O'zbekiston-Vatanim manim. O'zbekiston ko'p millatli Respublika. "Davlat tili haqida"gi qonun. "Davlat tili haqida"gi qonunning tarixiy va amaliy ahamiyati.

**2-Mavzu: Til ma'naviyat-ko'zgusi. Tilshunoslik. Dunyo tillari.**

Til va nutq munosabati. Tilshunoslik fanlari. Dunyo tillari. Til oilalari. Turkiy tillar.



**3-Mavzu:Til-eng muhim aloqa vositasi. O'zbek adabiy tili va shevalari.**

Umumxalq tili va amaliy til. Shevalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek adabiy tili.

**4-Mavzu: Universitetim bilan faxrlanaman. Leksikologiya.So'z ma'nolari va ularning ifodalanishi.**

Leksikologiyaning o'rganish obyekti. Lug'aviy ma'no va grammatik ma'no. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ma'no ko'chish usullari.

**5-Mavzu: Inson va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni. So'z va uning qo'llanishi.**

Inson va tabiat mushtarakligi. Omonim (shakldosh so'zlar). Sinonim (ma'nodosh) so'zlar. Antonim (zid ma'noli) so'zlar. Paronim so'zlar.

**6-Mavzu: O'zbekiston me'morchiligi. Tilning leksik qatlamlari.**Tarixiy me'morchilik an'analari. Umumturkiy so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'z qatlam so'zlar. O'zlashgan qatlam so'zlar.

**7-Mavzu: O'zbekiston sporti.Terminologiya va frazeologiya.**

Respublika miqyosida o'tkaziladigan sport o'yinlari ravnaqi.O'zbekiston sporti jahon arenasida.Terminologiya atamasi va uning terminlarni o'rganuvchi soha ekanligi.Terminologiyaning rivojlanishi. Frazeologiya va uning o'rganish ob'yekti. Iboralar va uning turlari.

**8-Mavzu: Oila-jamiyat tayanchi.Leksikografiya. Lug'at va uning turlari.**

Oila va jamiyat tushunchalari. Oila tushunchasi va uning jamiyatdagi o'rni, vazifasi. Leksikografiyaning o'rganish obyekti. Lug'atlar va ularning turlari.

**9-Mavzu: Dunyoviy fanlar va ularning rivojlanishida allomalarimizning o'rni. Fonetika. Nutq shakllari va nutq tovushlari.**

Buyuk siymolar. Dunyoviy fanlar va allomalar.Fonetika va uning o'rganish obyekti. Nutq shakllari va ularning rivojlanishi. Nutq organlari va nutq apparati. Nutq tovushlarining turlari. Unli va undosh tovushlar tasnifi.

**10-Mavzu: Xorazm Ma'mun akademiyasi-ilm-fan koshonasi.Bo'g'in va uning turlari.**

Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati va u yetishtirgan buyuk siymolar. Bo'g'in va uning turlari. Bo'g'inga ajratish va bo'g'in ko'chirish tartibi. Urg'u tushunchasi va turlari. Leksik urg'u. Logik urg'u.

**11-Mavzu: Buyuk ipak yo'li bo'ylab sayohat.O'zbek yozuvi tarixidan.**

Buyuk ipak yo'li tushunchasi. Qadimiy karvon yo'llari. Yozuv turlari haqida qisqacha ta'rif. Lotin imlosiga ko'chishning nazariy va amaliy ahamiyati.

**12-Mavzu: Konstitutsiya-qomusimiz. Orfoepiya va orfografiya. Talaffuz va imlo qoidalari.**

Konstitutsiya so'zini sharhlash.O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi haqida ma'lumot. Orfoepiya va uning o'rganish obyekti. Orfoepiya va orfografiyaning o'xshash va farqli jihatlari.

**13-Mavzu: Ulug' ajdodlarimiz. Morfemika. So'z yasalishi va tuzilishi.**

Xalqimiz tarixidagi buyuk siymolar. Qadimgi turkiy davrning buyuk siymolari . O'rta turk davrning mashhur kishilari. Morfemika va uning o'rganish obyekti. O'zbek tilida so'z yasalishi.

| | |
|---|---|
| | **14-Mavzu: Alisher Navoiy-so'z mulkining sultoni. Grammatika. So'z turkumlari.**<br>Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.Grammatika va uning o'rganish obyekti . Morfologiya va uning o'rganish obyekti. O'zbek tilida so'z turkumlari va uning turlari<br>**15-Mavzu: Z.M.Bobur - shoh va shoir. Ot va uning grammatik xususiyatlari.**<br>Z.M.Bobur hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Ot mustaqil so'z turkumi haqida. Otning ma'no jihatdan turlari. Ot mustaqil so'z turkumining grammatik xususiyatlari. Otlarning yasalishi. Otlarda egalik kategoriyasining ifodalanishi. Otlarda kelishik kategoriyasining ifodalanishi.<br>**16-Mavzu: Men sevgan asar. Sifat va uning grammatik xususiyatlari.**<br>Sifat mustaqil so'z turkumi. Sifatning grammatik xususiyatlari. Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sifat darajalari haqida ma'lumot. Orttirma daraja. Qiyosiy daraja. Ozaytirma daraja.<br>**17-Mavzu: O'zbek san'ati kamoli. Son va uning grammatik xususiyatlari.**<br>San'atni sevish-ma'naviyat belgisi. Son mustaqil so'z turkumi. Sonning grammatik xususiyatlari. Sonning ma'no turlari.<br>**18-Mavzu: O'zbek ma'naviyati yulduzlari. Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.**<br>O'zbek ma'naviyati yulduzlari haqida ma'lumot. Olmosh mustaqil so'z turkumi. So'roq va belgilash olmoshlari. Bo'lishsizlik va gumon olmoshlari. Kishilik va o'zlik olmoshlari.<br>**19-Mavzu: O'zbek udumlari. Fe'l va uning grammatik xususiyatlari.**<br>Udum tushunchasi. O'zbek udumlarining o'ziga xos jihatlari. Fe'l mustaqil so'z turkumi. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlarining ifodalanishi. Fe'llarning tuslanishi.<br>**20-Mavzu: Milliy qadriyatlar e'zozi. Fe'l zamonlari va fe'lning xoslangan shakllari.**<br>Milliy qadriyatlar haqida ma;lumot. Fe'llarda zamon kategoriyasining ifodalanishi. O'tgan zamon fe'llari. Hozirgi zamon fe'llari. Kelasi zamon fe'llari. Kelasi zamon fe'llari. Fe'lning xoslangan shakllari haqida ma'lumot. Ravishdoshning ifodalanishi. Sifatdoshning ifodalanishi. Harakat nomining ifodalanishi.<br>**21-Mavzu: XXI asr-texnika asri. Ravish va uning ma'no turlari.**<br>XXI asrning boshqa asrlardan farqi. Texnika asri tushunchasi. Ravish mustaqil so'z turkumi. Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning ma'no turlari.<br>**22-Mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimi. Yordamchi so'zlar turkumi.**<br>O'zbekiston ta'lim tizimi haqida ma'lumot. Yordamchi so'zlar turkumi haqida ma'lumot. Ko'makchi va uning grammatik xususiyatlari. Bog'lovchi va uning grammatik xususiyatlari. Yuklama va uning grammatik xususiyatlari.<br>**23-Mavzu: Barkamol avlod orzusi. Alohida olingan guruh so'zlar turkumi.** |



| | |
|---|---|
| | Barkamol avlod tushunchasi. Alohida olingan guruh so'zlar turkumiga xos xususiyatlar. Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.<br>**24-Mavzu: Kitob bilim Manbai. Gap va uning asosiy belgilari.**<br>Kitob-bizning do'stimiz. Gap haqida tushuncha. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Gapning voqelikka munosabatiga ko'ra turlari.<br>**25-Mavzu: Inson hayotida tabiatning o'rni. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari. .**<br>Inson va tabiat mushtarakligi xususida. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari. . Sodda gap. Qo'shma gap. So'z gap.<br>**26-Mavzu: Muomala odobi. So'z birikmasi va uning birikish usullari.**<br>Muomala odobi haqida misollar. So'z birikmasi va gap. So'z birikmasining bog'lanish usullari.<br>**27-Mavzu: Inson odobi bilan go'zal. Gap bo'laklari.**<br>Inson va odob. Gap bo'laklari haqida ma'lumot. Gapning bosh bo'laklari. Ega haqida ma'lumot. Kesim haqida ma'lumot. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarining o'ziga xos xususiyatlari. Aniqlovchi. To'ldiruvchi. Hol.<br>**28-Mavzu: Shaxsiy hujjatlar bilan ishlash. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.**<br>Ish hujjatlari bilan ishlash. Ma'lumotnoma. Tushuntirish xati. Tilxat. Ariza yozish tartibi. Bildirishnoma yozish tartibi. Ko'chirma gapning tuzilishi. O'zlashtirma gapning tuzilishi.<br>**29-Mavzu: Xizmat yozishmalari. Xatlar.Nutq uslublari.**<br>Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'zlashuv uslubi. Rasmiy-idoraviy uslub.Ilmiy uslub. Ommabop uslub. Badiiy uslub.<br>**30-Mavzu: Nutqni ifodalash usullari. Stilistika. Nutq uslublari.**<br>Nutq ifodalashdagi verbal hodisalar. Nutq ifodalashdagi noverbal hodisalar. Nutq uslublari va stilistika. |
| **3.** | **III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**<br>**Tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Mahmud Qoshg'ariyning ijodiy merosi.<br>2. Abdurauf Fitrat- buyuk dramaturg.<br>3. Mahmud az Zamaxshariy - buyuk tilshunos olim.<br>4. Abdulhamid Cho'lponning ijodiy merosi.<br>5. Erkin Vohidov she'riyati.<br>6. Imom al Buxoriy-islom dini bilimdoni.<br>7. Abdulla Oripov she'riyati.<br>8. Amir Temur – buyuk davlat arbobi.<br>9. J.Manguberdi - millatimiz g'ururi.<br>10.Najmiddin Kubro-so'fiy olim va xalq qahramoni.<br>11.Abdulla Qodiriy- o'zbek romanchiligi asoschisi.<br>12.Z.M.Bobur – shoh va shoir.<br>13.Ahmad Yassaviyning so'fiyona qarashlari.<br>14.Pirimqul Qodirov-buyuk adib. |

| | |
|---|---|
| | 15.Bahoviddin Naqshbandning ma’naviy qarashlari.<br>16.Muhammad Yusuf- o‘zbek she’riyati gultoji.<br>17.Abdulla Qahhor- buyuk so‘z san’atkori.<br>18.Abu Rayhon Beruniyning ijodiy merosi.<br>19.Zulfiyaxonim she’riyatida firoq mavzusi.<br>20.Pahlavon Mahmud she’riyati.<br>21.Nodirabegim lirikasi.<br>22.To‘maris- xalqimizning buyuk qahramoni.<br>23.Z.X.Furqat- ma’rifatparvar shoir.<br>24.Shiroq – xalqimizning afsonaviy qahramoni.<br>25.Muhammad Rahimxon Feruz- shoh va shoir.<br>26.Alisher Navoiy asarlarining g‘oyaviy mohiyati.<br>27.Muhammadrizo Ogahiy asarlarida millat tuyg‘usining ifodalanishi.<br>28.Muhammad al Xorazmiyning ilmiy merosi.<br>29.O’zbekiston ta’lim tizimi.<br>30.Abu Ali ibn Sino – qomusiy olim.<br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar teatr, muzey, shaharning diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtiradilar, buyuk alloma va olimlar hayot yo‘li, yozuvchi va shoirlar ijodidan namunalar bilan tanishadilar, badiiy asarlarni mutolaa qiladilar, taassurotlari asosida ijodiy ish yozadilar, audio va video topshiriqlarni bajaradilar, taqdimotlar tayyorlaydilar. |
| 4. | **IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>- o‘zbek tiliga mansub bo‘lgan til oilasi va guruhi, o‘zbek tilining fonetikasi va morfologiyasi, o‘zbek tilining gap qurilishini;<br>- o‘zbek tilida so‘zlarning qo‘llanilishi to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi lozim**.<br>- o‘zbek tilidagi nutq tovushlari va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni;<br>- o‘zbek tilida sintaktik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olishni;<br>- bog‘lanishli matn tuzish va o‘z sohasi doirasida fikrlarni o‘zbek tilida bayon qila olishni **bilishi kerak**.<br>Og‘zaki va yozma nutqda o‘zbek tilining grammatik qoidalarini qo‘llay olishi, o‘z ixtisosligi bo‘yicha o‘zbek tilida maqola, risolalar tayyorlashda lug‘atlardan foydalana olish;<br>- so‘zlarni o‘rinli qo‘llay olishi, o‘qish va keyingi mehnat faoliyati jarayonida o‘zbek tilida muloqotga kirisha olish, yetarli yozma va og‘zaki savodxonlikka ega bo‘lish;<br>- o‘zbek nutqining barcha uslublarida bitilgan matnlarni o‘rganishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llash, o‘zbek tilida ish yuritish ko‘nikmalarini faoliyatiga tatbiq eta olish va ixtisosligi sohasidagi kitob taqriz yoza bilish, u yoki munosabat bilan o‘z fikrini o‘zbek tilida asosli bayon qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish lozim.<br>Shuningdek, o‘zbek tili fanini davlat tili sifatida puxta egallash uchun har bir talaba o‘zbek tilining og‘zaki va yozma nutq shakllarini to‘liq o‘zlashtirishi, |



| | |
|---|---|
| | uning so‘z boyligidan grammatik bilimlar asosida to‘g‘ri foydalana bilishi, kundalik turmush va tanlangan ixtisosligiga oid mavzularda o‘zbekcha erkin muloqotga kirisha olishi zarur.<br>Shunga ko‘ra, talabalar o‘zbek tili fanidan:<br>- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida o‘zbek tilining fonetikasi, grammatikasi bo‘yicha egallagan bilimlarini to‘ldirishi va rivojlantirishi;<br>- o‘zbek tilining so‘z boyligidan gap tuzish va uni nutq uslublarida to‘g‘ri qo‘llashda foydalana bilishi;<br>- kasbiy atamalarni tushunishi, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo‘llay olishi;<br>- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mutaxassisligiga oid mavzularda bog‘lanishli matn tuza olishi va bundan matnlarni tarjima qilishi;<br>- o‘zbek xalqining tarixi, an'analari urf-odatlari, mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti to‘g‘risidagi turli nutqiy vaziyatlarda o‘zbekcha erkin muloqotga kirisha olishi;<br>- ixtisoslikka oid ilmiy atamalarni to‘g‘ri o‘qish, ma’nosini izohlay bilish, ular ishtirokidagi gaplarni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzishni bilishi va amalda qo‘llay olishi;<br>- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda o‘zbek tilining grammatik qoidalari, me’yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalash olish;<br>- o‘z ixtisosligi bo‘yicha lug‘atlardan foydalangan holda maqola, turli rasmiy ish hujjatlarini tayyorlay bilishi,<br>- davlat tilida yetarli yozma savodxonlikka ega bo‘lish, ish yuritish ko‘nikmalarini mehnat faoliyatiga erkin tatbiq eta bilishi;<br>- o‘zbek tilidagi turli matnlarni, xususan, ixtisoslikka oid matnlarni tushunib o‘qish va tarjima qilishi;<br>- o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi va ixtisoslik atamalaridan o‘rinli foydalanish, ular yordamida o‘z fikr-mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo‘lishi zarur. |
| 5. | **V. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- amaliy topshiriqlar;<br>- interfaol keys-stadilar;<br>- amaliy mashg’ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar; |
| 6. | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 7. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1.Muhitdinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim |

| | |
|---|---|
| | muassasalari rus guruhlari uchun darslik). - Toshkent: O'qituvchi, 2012. –288.<br>2.M.Aminov, A.Madvaliyev,N.Mahkamov,N.Mahmudov, Yo.Odilov. Davlat ida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. O'zbekiston nashriyoti. 2020.<br>3.Xolmuradova J.I. O'zbek tili. O'quv qo'llanma.-T. TAQI nashriyoti, 19.- 312b.<br>4.Alimova N.S. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlarining bakalavriyat 'nalishlari rus guruhlari uchun darslik. TAQI nashriyoti. 2022. 344 bet.<br>5.Alimova N.S. O'zbek tili. O'quv qo'llanma.-T. TAQI nashriyoti. 22.233 bet.<br>1. **Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>2.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.– T.: O'zbekiston, 2017.– 76 b.<br>3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni // O'zbekistonning yangi Qonunlari. – Toshkent: Adolat, 1996. – B. 20–30.<br>4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son).<br>**Axborot manbalari:**<br>5.http://gov.uz/ - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>6. http://www.ziyonet.uz/- Ta'lim portali<br>7. http://www.edu.uz/ - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali<br>8. http://www.pedagog.uz/ - Pedagogika ta'lim muassasalari |
| **8.** | Fan dasturi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti kengashining 2024-yil "30" 08 dagi 1 – sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **9.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>1. Alimova.N.S. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti.<br>2. Turdibekova R.Sh. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti assistenti. |
| **10.** | **Taqrizchilar:**<br>1. Maxkamova M.Yu. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi v.v.b.professori, pedagogika fanlari nomzodi.<br>2. Niyozmetova R.R. TDO'AU "O'zbek tili va adabiyoti" fakulteti, "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori. |